



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO`LIMI



## TOSHKENT SHAHRIDA 2019 YIL YANVAR- NOYABR OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 49515,4 mld. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 108,6 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 106,0 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 91,9 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 100,8 % ni tashkil qiladi.

Sanoat mahsuloti hajmi 49515,4 mld. so'mni, sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 21617,1 mld.so'mni va o'sish sur'ati 107,6 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi 43,7 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 66,7 %

# 2019 YILNING YANVAR-NOYABR OYLARIDA ASOSIY IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQARISH TARKIBI


Umumiy hajmdagi ulushi




**Tog'-kon sanoati va  
ochiq konlarni ishlash**  
(sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish indeksi - 106,0 % )



**Ishlab chiqaradigan sanoat**  
(sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish indeksi - 108,6 % )




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash**  
(sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish indeksi - 91,9 % )



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya  
tizimi, chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish**  
(sanoat mahsulotlari ishlab  
chiqarish indeksi - 100,8%)

## TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 3012,9 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etgan.



Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 8,8 % ga oshdi va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 1,0 % ga kamaydi.



## TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI

### TABIYY GAZ VA XOM NEFT QAZIB OЛИSH



2018 yil yanvar-noyabrdada  
1957,2 mln. so'mlik mahsulot  
ishlab chiqarilgan

2018-yil yanvar-noyabrga  
nisbatan 108,8 % da

2019 yil yanvar-noyabrdada  
2874,0 mln. so'mlik mahsulot  
ishlab chiqarilgan

### BOSHQA TOG‘-KON SANOATI



2018 yil yanvar-noyabrdada  
116,3 mln. so'mlik mahsulot  
ishlab chiqarilgan


2018-yil yanvar- noyabrga  
nisbatan 99,0 % da

2019 yil yanvar-noyabrdada  
128,1 mln. so'mlik mahsulot  
ishlab chiqarilgan

## ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43306,0 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 108,6 %. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi – 5,5 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 24,9 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 34,4 %, quyi texnologiyali – 35,2 % ni tashkil etdi.

2019 - yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kiyim ishlab chiqarish sohasi 4,3 % ga, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 8,5 % ga kamaydi.

Shu bilan bir qatorda, elektir uskunalar ishlab chiqarish 36,8 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 29,7 % ga oshdi.

# ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



2018 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
3716,1 mlrd. so'mlik

2018-yil yanvar-noyabrga  
nisbatan 103,2 % da

2019 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
4192,9 mlrd. so'mlik

## ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



2018 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
2260,7 mlrd. so'mlik



2019 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
2934,0 mlrd. so'mlik

## TAMAKI MAHSULOTLARI



2018 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
41,8 mlrd. so'mlik



2019 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
95,7 mlrd. so'mlik

# ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

## TEKSTIL MAHSULOTLARI



2018 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
2178,3 mlrd. soʻmlik



2018-yil yanvar-noyabrga  
nisbatan 114,5 % da

2019 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
2623,7 mlrd. soʻmlik

## FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



2018 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
896,6 mlrd. soʻmlik



2018-yil yanvar-noyabrga  
nisbatan 108,5 % da

2019 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
1126,1 mlrd. soʻmlik

## AVTOTRANSSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR



2018 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
249,1 mlrd. soʻmlik




2018-yil yanvar-noyabrga  
nisbatan 120,9 % da

2019 yil yanvar-noyabrdagi  
ishlab chiqarilgan mahsulot  
316,3 mlrd. soʻmlik



## ELEKTR, GAZ, BUG' BILAN TA'MINLASH VA XAVONI KONDITSIYALASH

2019 yil yanvar-noyabr oylarida korxonalar tomonidan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va xavoni konditsiyalash tizimlari sohasi bo'yicha 2335,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi - 91,9 % ni tashkil etdi.



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va xavoni konditsiyalash tizimlari

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va xavoni konditsiyalash tizimlari sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 12,7 % ga pasaydi.

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 10,6 % ga o'sdi.

## **SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.**


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 861,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.**

**Bunda 2019-yil yanvar-noyabr oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 % ga ko'paygan.**

### **ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH**

**Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 21617,1 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 43,7 %.**

**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish  
hajmi va o'sish sur'atlari % da**




## ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6669,9 mlrd. so‘nni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 30,9 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 14110,0 mlrd.so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 65,3 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 837,2 mlrd.so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 3,8 % tashkil etdi.


### 2019 YILNING YANVAR-NOYABR OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI % DA

Toshkent shahar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko’p ulush Chilonzor (shahar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (12,0%ulushini), Bektemir (11,1 %), Yashnobod (10,9 %), Olmazor (10,2%) va Mirzo Ulug’bek (9,9 %) tumanlari hissasiga to‘g’ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (6,2 %), Yunusobod (6,8 %) va Uchtepa (7,0 %) tumanlari hissasiga to‘g’ri kelmoqda.





**2019 YILNING YANVAR-NOYABR OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL  
TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING O'SISH SUR'ATI % DA**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir (121,1 %), Chilonzor (108,8 %) va Sergeli tumanlarida (108,7 %) kuzatilgan. Eng kam o'sish sur'atlari esa Uchtepa (103,3 %), Olmazor (103,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.




## HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Mirobod (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi hajmining 14,6 % ulushini), Yashnobod (11,4 %), Bektemir (10,4 %), Sergeli (9,9 %) va Mirzo Ulug'bek (9,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,4 %), Uchtepa (5,6 %), Chilonzor (6,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

### 2019 YILNING YANVAR- NOYABR OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI % DA





## SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 66,7 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Olmazor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,6 %), Yunusobod (87,4 %), Chilonzor (86,7 %) va Uchtepa (85,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (26,5 %), Mirzo Ulug'bek (45,0 %) va Shayxontohur (54,2 %) tumanlarida kuzatildi.

### HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI % DA

